XALQ DEPUTATLARI NURATA TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 8-oktabr VI-77-116-5-74-K/24 Nurota tumani

Nurota tumanining ma'muriy-hududiy birliklar chegarasini belgilash to'g'risida

“O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 10-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 41-sonli bayoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi “Ma′muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillash takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 299-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda tasdiqlangan 03/4.3-253-sonli "Yo'l xaritasi" hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Nurota tumanining ma'muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash masalalarini ko’rib chiqish bo’yicha hududiy komissiyasining “Nurota tumanining Konimex, Navbahor, Xatirchi tumanlari va G‘ozg‘on shahar hamda Samarqand viloyatining Qo’shrabot va Jizzax viloyatining Forish tumanlari bilan ma'muriy-hududiy birliklar chegarasini belgilash to'g'risida”gi yig'ilish bayoni ma'qullansin.

2. Mazkur qaror bilan Nurota tumanining ma'muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash masalalarini ko’rib chiqish bo’yicha hududiy komissiyasi tomonidan taqdim etilgan:

Nurota tumanining Konimex, Navbahor, Xatirchi tumanlari va G‘ozg‘on shahar hamda Samarqand viloyatining Qo’shrabot va Jizzax viloyatining Forish tumanlari bilan ma'muriy-hududiy birliklar chegarasining tavsifi **I-ilovaga** va kartografik chizmasi **2-ilovaga** muvofiq ma'qullansin.

3. Ushbu qaror xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashiga yuborilsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal xo'jaligi masalalari va aholiga xizmat ko'rsatish bo'yicha doimiy komissiya raisi S.Zokirov hamda tuman hokimining o'rinbosarlari O.Oxunjonov, F.Yodgorov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



FAYZIYEV AZAMAT ISMATOVICH

Xalq deputatlari Nurota tumani
Kengashining
2024-yil 8-oktabrdagi
VI-77-116-5-74-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Navoiy viloyati Nurota tumanining chegara
TAVSIFI

Jizzax viloyati, Nurota va Konimex tumanlarining chegara chiziqlari kesishgan joy boshlang‘ich 1 - nuqta deb qabul qilindi.*(WGS-84 koordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatalari 41°04'37.997", sharqiy uzoqlik koordinatalari 66°38'44.625").*

A dan B gacha Jizzax viloyatiy erlari bilan 1 – 7 –nuqtalar oralig‘ida chegaralari tavsifi quyidagicha:

1 - nuqtadan chegara chizig‘i quruq chiziq orqali saksovul o‘sgan qumloqdagi yaylovlar va Aydar-Arnasoy ko‘li bo‘ylab umumiy janubiy yo‘nalishda 17423 metr masofada 2-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°55'13,801", sharqiy uzoqlik 66°38'58,726").*

2 - nuqtadan chegara chizig‘i quruq chiziq orqali Aydar-Arnasoy ko‘li bo‘ylab umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3744 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1794 metr, so‘ng sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 2634 metr, so‘ngra umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 7265 metr masofada dala tuproq yo‘llarini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°50'55,161", sharqiy uzoqlik 66°45'35,150").*

3 - nuqtadan chegara chizig‘i quruq chiziq orqali umumiy janubiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 5720 metr masofada dala tuproq yo‘llarini kesib o‘tib, yo‘lga tutashadi va yo‘l bo‘ylab janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1660 metr, keyin janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1556 metr, so‘ng janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 2333 metr, so‘ngra sharqiy yo‘nalishda 352 metr masofada dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°45'28,270", sharqiy uzoqlik 66°47'29,724").*

4 - nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘li bo‘ylab janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 7346 metr masofani o‘tib, keyin soyga o‘tadi va soy bo‘ylab umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 8360 metr masofada dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°38'42,288", sharqiy uzoqlik 66°42'35,857").*

5 - nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘li bo‘ylab janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 696 metr masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, keyin avtomobil yo‘lini bo‘ylab janub tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 23 metr masofani o‘tib, so‘ngra dala tuproq yo‘li bo‘ylab janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda

barcha burilishlarni hisobga olgan holda 870 metr, so‘ng sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalihda 315 metr, keyin quruq chiziq orqali Qoratau tog‘ tizmasi bo‘ylab umumiy janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalihda 2703 metr, so‘ngra umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalihda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3134 metr masofada tog‘ tizmasida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°35'31,843", sharqiy uzoqlik 66°42'17,660").*

6 – nuqtadan chegara quruq chegara chizig‘i orqali Qoratau tog‘ tizmasi bo‘ylab umumiy janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2595 metr masofani o‘tib, keyin g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1679 metr masofani o‘tib, so‘ng umumiy janubiy yo‘nalishda 803 metr masofani o‘tib, so‘ngra g‘arbiy yo‘nalishda 846 metr masofani o‘tib, keyin umumiy janubiy yo‘nalishda 4092 metr masofani o‘tib, Navoiy, Jizzax va Samarqand viloyatlari chegara chiziqlari kesishgan joydagi 7-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°31'37.802", sharqiy uzoqlik 66°40'00.962").*

B dan D gacha Samarqand viloyati yerlari bilan 7 – 17 –nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

7 – nuqtadan chegara chizig‘i Zirabuloq va Ziyovuddin tog‘ tizmasi bo‘ylab umumiy g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 8717 metr masofani o‘tib, 8-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°32'57.652", sharqiy uzoqlik 66°35'17.379").*

8 - nuqtadan chegara quruq chegara chizig‘i orqali shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 324 metr masofada Fozilmon ko‘lini kesib o‘tadi, keyin dala tuproq yo‘li bo‘ylab shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 2325 metr, so‘ng shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 2110 metr, so‘ngra g‘arbiy yo‘nalishda 1097 metr, keyin shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 2482 metr masofada quruq soyga tutashadi va soy bo‘ylab umumiy shimoliy yo‘nalishda 1511 metr masofada dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘l bo‘ylab shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 127 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 9-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°36'41.760", sharqiy uzoqlik 66°33'28.804").*

9 - nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining shimol tomoni bilan shamoli-g‘arbiy yo‘nalishda 715 metr, keyin g‘arbiy yo‘nalishda 1620 metr masofani o‘tib, so‘ng Zirabuloq va Ziyovuddin tog‘ tizmasiga tutashadi va tog‘ tizmasi bo‘ylab umumiy g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 8857 metr, so‘ngra shimoliy yo‘nalishda 2201 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 2245 metr, so‘ng shimoliy yo‘nalishda 3024 metr masofada quruq soyga tutashadi va soy bo‘ylab shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 852 metr, so‘ngra g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 508 metr masofani o‘tib, quruq soyda joylashgan 10-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°42'30.852", sharqiy uzoqlik 66°27'18.001").*

10 - nuqtadan chegara chizig‘i quruq soy bo‘ylab g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 419 metr, keyin janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 195 metr masofani o‘tib, so‘ng Zirabuloq va Ziyovuddin tog‘ tizmasiga tutashadi va tog‘ tizmasi bo‘ylab g‘arbiy yo‘nalishda 874 metr masofada quruq soyga o‘tadi va soy bo‘ylab janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 450 metr masofani o‘tib, so‘ngra

Zirabuloq va Ziyovuddin tog‘ tizmasiga tutashadi va tog‘ tizmasi bo‘ylab umumiy g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 2013 metr, keyin g‘arbiy yo‘nalishda 700 metr masofada soyni kesib o‘tib, so‘ng g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda soyiga tutashadi va soy suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 317 metr masofada Zirabuloq va Ziyovuddin tog‘ tizmasiga tutashadi va tog‘ tizmasi bo‘ylab umumiy g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1436 metr masofada quruq soyga tutashadi va soy bo‘ylab janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 339 metr masofada Nurota tog‘ tizmasiga tutashadi va tog‘ tizmasi bo‘ylab g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 965 metr, so‘ng g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 341 metr masofada Sanguzarsoy soyiga o‘tadi va umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda soyning suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘i bilan 1991 metr, so‘ngra g‘arbiy yo‘nalishda 1976 metr, janubiy yo‘nalishda 320 metr, so‘ng umumiy g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 3016 metr masofada Sanguzarsoy soyidan Toshbuloqsoy soyiga o‘tadi va soy bo‘yida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°43'38.183", sharqiy uzoqlik 66°18'41.442").*

11 - nuqtadan chegara chizig‘i umumiy janubiy yo‘nalishda Toshbuloqsoy soyi suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3425 metr, keyin umumiy sharqiy yo‘nalishda 321 metr,so‘ng janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1028 metr, so‘ngra janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1347 metr, keyin janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1579 metr, so‘ng janubiy yo‘nalishda 1337 metr, so‘ngra janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 729 metr masofada dala tuproq yo‘liga o‘tadi va yo‘lning shimol tomoni bo‘ylab g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 92 metr masofani o‘tib, dala tuptoq yo‘li bo‘yida joylashgan 12-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°39'51.063", sharqiy uzoqlik 66°18'06.103").*

12 - nuqtadan chegara chizig‘i g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda soyning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 2121 metr masofada soyni kesib o‘tib, dala tuproq yo‘liga o‘tadi va yo‘lning g‘arb tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 656 metr, keyin yo‘lning shimol tomoni bilan umumiy g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 92 metr masofada quruq soyga o‘tadi va soy bo‘ylab janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 3313 metr, so‘ngra g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 531 metr masofadan keyin quruq chegara chizig‘i orqali g‘arbiy yo‘nalishda 1070 metr masofada quruq soyga o‘tadi va soy bo‘ylab umumiy g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 731 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 13-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°36'59.484", sharqiy uzoqlik 66°14'39.915").*

13 - nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining sharq tomoni bo‘ylab umumiy janubiy yo‘nalishda 13820 metr, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1174 metr masofada qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°29'29.700", sharqiy uzoqlik 66°13'28.910").*

14 - nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining g‘arb tomoni bilan umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda 821 metr, keyin sharqiy yo‘nalishda 417 metr, so‘ng umumiy janubiy yo‘nalishda 634 metr masofada Kalamajar soyini kesib o‘tadi, so‘ngra soyning suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan g‘arbiy-

janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 602 metr, keyin g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1425 metr masofada avtomobil yo‘liga tutashadi va yo‘lning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1360 metr, so‘ng g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 877 metr, so‘ngra yo‘lning janub tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 447 metr, keyin yo‘lning sharq tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 215 metr, so‘ng janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 356 metr, so‘ngra yo‘lning shimol tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 547 metr, keyin yo‘lning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 2125 metr, so‘ng yo‘lning shimol tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 2208 metr, so‘ngra yo‘lning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 2862 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°25'06.754", sharqiy uzoqlik 66°12'43.137").*

15 - nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lining shimol tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 1871 metr masofada quruq soyga tutashadi va quruq soy bo‘ylab umumiy janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 3949 metr masofadan keyin quruq chiziq orqali g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 376 metr masofada quruq soyga o‘tadi va soy bo‘ylab janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1658 metr masofada dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning g‘arb tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 790 metr, keyin yo‘lning janub tomoni bilan g‘arbiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 378 metr masofada quruq soyga tutashadi va soy bo‘ylab janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1021 metr masofada dala tuproq yo‘liga o‘tadi va dala tuproq yo‘lining shimol tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 240 metr masofada avtomobil yo‘liga tutashadi va avtomobil yo‘lining sharq tomoni bo‘ylab janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1193 metr masofada qishloq ichki yo‘liga tutashadi va qishloq ichki yo‘lining sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 923 metr masofani o‘tib, keyin qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tib Zirabuloq va Ziyovuddin tog‘ cho‘qqisiga tutashadi va tog‘ cho‘qqisi bo‘ylab barcha burilishlarni hisobga olgan holda umumiy janubiy yo‘nalishda 3100 metr masofada dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning shimol tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 96 metr, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 721 metr, so‘ng sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 145 metr masofada quruq soyga tutashadi va soy bo‘ylab janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 116 metr masofani o‘tib, quruq soy bo‘yida joylashgan 16-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°18'37.485", sharqiy uzoqlik 66°12'06.357").*

16 - nuqtadan chegara chizig‘i quruq soy bo‘ylab umumiy janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 470 metr, keyin shimoliy yo‘nalishda 270 metr, so‘ng g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 608 metr, so‘ngra janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 624 metr, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘naishda 151 metr masofani o‘tib, Samarqand viloyati, Xatirchi va Nurota tumanlari chegara chiziqlari kesishgan joy, soy bo‘yidagi 17-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°18'02,484", sharqiy uzoqlik 66°11'27,762").*

D dan E gacha Xatirchi tumani yerlari bilan 17 – 44 –nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

17-nuqtadan chegara chizig‘i tog‘ cho‘qqisi bo‘ylab umumiy g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 10991 metr masofani o‘tib, soy bo‘yida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°19'46,001", sharqiy uzoqlik 66°04'38,638").*

18-nuqtadan chegara chizig‘i tog‘ cho‘qqisi bo‘ylab umumiy g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2338 metr masofanio‘tib, tog‘ cho‘qqisida joylashgan 19-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°20'15,799", sharqiy uzoqlik 66°03'09,372").*

19-nuqtadan chegara chizig‘i quruq soy bo‘ylab shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3133 metr masofani o‘tib, tog‘ cho‘qqisida joylashgan 20-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°21'35,891", sharqiy uzoqlik 66°02'31,773").*

20-nuqtadan chegara chizig‘i tog‘ cho‘qqisi bo‘ylab umumiy g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1766 metr masofanio‘tib, soy bo‘yida joylashgan 21-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°21'41,927", sharqiy uzoqlik 66°01'22,952").*

21-nuqtadan chegara chizig‘i quruq chegara chiziq bo‘ylab umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3650 metr masofani o‘tib, tog‘ cho‘qqisida joylashgan 22-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°23'25.217", sharqiy uzoqlik 66°00'12.472").*

22-nuqtadan chegara chizig‘i quruq chegara chiziq bo‘ylab umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1657 metr masofani o‘tib tog‘ cho‘qqisida joylashgan 23-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°23'55.246", sharqiy uzoqlik 65°59'14.450").*

23-nuqtadan chegara chizig‘i tog‘ cho‘qqisi bo‘ylab umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 564 metr masofani o‘tib tog‘ cho‘qqisida joylashgan 24-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°24'05.706", sharqiy uzoqlik 65°58'56.942").*

24-nuqtadan chegara chizig‘i tog‘ cho‘qqisi bo‘ylab umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1709 metr masofani o‘tib tog‘ cho‘qqisida joylashgan 25-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°24'21.007", sharqiy uzoqlik 65°57'57.653").*

25-nuqtadan chegara chizig‘i tog‘ cho‘qqisi bo‘ylab shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1780 metr masofani o‘tib, tog‘ cho‘qqisida joylashgan 26-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°24'36.224", sharqiy uzoqlik 65°56'53.787").*

26-nuqtadan chegara chizig‘i tog‘ cho‘qqisi bo‘ylab umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1020 metr masofani o‘tib, tog‘ cho‘qqisida joylashgan 27- nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°24'08.986", sharqiy uzoqlik 65°56'34.497").*

27-nuqtadan chegara chizig‘i tog‘ cho‘qqisi bo‘ylab umumiy g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 4003 metr

masofani o‘tib, tog‘ cho‘qqisida joylashgan 28-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°23'07,263", sharqiy uzoqlik 65°55'38,381").*

28-nuqtadan chegara chizig‘i quruq soy bo‘ylab janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1841 metr masofani, keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 414 metr masofani o‘tib quruq soy bo‘yida joylashgan 29-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°22'25,661", sharqiy uzoqlik 65°55'07,528").*

29-nuqtadan chegara chizig‘i g‘arbiy yo‘nalishda tog‘ cho‘qqisi bo‘ylab barcha burilishlarni hisobga olgan holda 738 metr masofani, keyin janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2566 metr masofani, so‘ng g‘arbiy yo‘nalishda 2621 metr masofani o‘tib soy bo‘yida joylashgan 30-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°21'48,423", sharqiy uzoqlik 65°51'47,657").*

30-nuqtadan chegara chizig‘i soy bo‘ylab shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3408 metr masofani o‘tib, keyin quruq chegara chiziq bo‘ylab shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 567 metr masofani o‘tib tog‘ cho‘qqisida joylashgan 31-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°22'59.612", sharqiy uzoqlik 65°52'16.573").*

31-nuqtadan chegara chizig‘i tog‘ cho‘qqisi bo‘ylab umumiy g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2028 metr masofani o‘tib, tog‘ cho‘qqisida joylashgan 32-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°23'11.357", sharqiy uzoqlik 65°51'07.434").*

32-nuqtadan chegara chizig‘i tog‘ cho‘qqisi bo‘ylab shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1335 metr masofani o‘tib, soybo‘yida joylashgan 33-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°23'27.407", sharqiy uzoqlik 65°50'25.698").*

33-nuqtadan chegara chizig‘i quruq chegara chizig‘i bo‘ylab shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1381 metr masofani o‘tib tog‘ cho‘qqisida joylashgan 34-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°23'44,134", sharqiy uzoqlik 65°49'41,243").*

34-nuqtadan chegara chizig‘i quruq chegara chiziq bo‘ylab janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1159 metr masofada quruq soyda joylashgan 35-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°23'19,365", sharqiy uzoqlik 65°49'33,027").*

35-nuqtadan chegara chizig‘i quruq soy bo‘ylab g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 506 metr masofani o‘tib,keyin chegara chiziq bo‘ylab janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 622 metr masofani, quruq soy bo‘ylab janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 994 metr masofani, sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 269 metr masofani o‘tib, keyin chegara chiziq bo‘ylab janubiy-sharqiy yo‘nalishda 191 metr masofani o‘tib, dala yo‘lining shimol tomonida joylashgan 36-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°22'45,524", sharqiy uzoqlik 65°48'56,107").*

36-nuqtadan chegara chizig‘i quruq soy boylab janubiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1471 metr masofani, shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 608 metr masofani o‘tib, keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda chegara chiziq bo‘ylab 110 metr masofani o‘tib dala tuproq yo‘lining shimolida joylashgan 37-nuqtaga o‘tadi. *(shimoliy kenglik 40°22'14,464", sharqiy uzoqlik 65°48'45,418").*

37-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining shimoliy tomoni bo‘ylab, janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 805 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘lining shimoliy qismida joylashgan 38- nuqtaga o‘tadi. *(shimoliy kenglik 40°22'00,508", sharqiy uzoqlik 65°48'19,027").*

38-nuqtadan chegara chizig‘i quruq soy bo‘ylab janubiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2606 metr masofani, chegara chizig‘i bo‘ylab g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 340 metr masofani o‘tib dala tuproq yo‘lining shimol tomonida joylashgan 39-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°20'46,485", sharqiy uzoqlik 65°47'49,625").*

39-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining shimoliy tomoni bo‘ylab janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1560 metr masofada, dala tuproq yo‘lining shimol tomonida joylashgan 40-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°20'21,580", sharqiy uzoqlik 65°47'06,431").*

40-nuqtadan chegara chizig‘i tuproq yo‘lining shimol tomoni bo‘ylab shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1007 metr masofada, dala tuproq yo‘lining shimol tomonida joylashgan 41-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°20'29,420", sharqiy uzoqlik 65°46'27,817").*

41-nuqtadan chegara chizig‘i quruq soy bo‘ylab janubiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1999 metr masofani o‘tib, yondosh tomondan qo‘shilgan soy bo‘yida joylashgan 42-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°19'26,671", sharqiy uzoqlik 65°46'18,661").*

42-nuqtadan chegara chizig‘i soy bo‘ylab janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1123 metr masofani o‘tib, soy bo‘yida joylashgan 43-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°19'00.561", sharqiy uzoqlik 65°46'45.796").*

43-nuqtadan chegara chizig‘i vaqtincha oqar soy bo‘ylab umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1674 metr masofani o‘tib, Xatirchi, Navbahor va Nurota tumanlarining chegara chiziqlari kesishgan joy, tog‘ etagida joylashgan 44-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°18'21.431", sharqiy uzoqlik 65°46'23.897").*

E dan F gacha Navbahor tumani yerlari bilan 44-51 –nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

44-nuqtadan chegara quruq chegara chizig‘i orqali barcha burilishlarni hisobga olgan holda g‘arbiy yo‘nalishda 4118 metr masofani, keyin janubiy yo‘nalishda 544 metr masofani, so‘ngg‘arbiy yo‘nalishda 5236 metr masofani

o‘tib, tog‘ cho‘qqisida joylashgan 45-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°18'27.798", sharqiy uzoqlik 65°40'14.027").*

45-nuqtadan chegara quruq chegara chizig‘i bo‘ylab umumiy shimoliy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 5077 metr masofani o‘tib, tog‘ cho‘qqisida joylashgan 46-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°20'58.469", sharqiy uzoqlik 65°41'01.407").*

46-nuqtadan chegara quruq chegara chizig‘i bo‘ylab g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2063 metr masofada dala yo‘lini kesib o‘tib, keyin tog‘ cho‘qqisi bo‘ylab umumiy g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 14005 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘lining sharq tomonida joylashgan 47-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°22'56,776", sharqiy uzoqlik 65°30'50,979").*

47-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lining sharqiy tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1246 metr masofani o‘tib, keyin dala tuproq yo‘lining shimol tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1523 metr masofani o‘tib, keyin dala tuproq yo‘lining bo‘yida joylashgan 48-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°23'20,649", sharqiy uzoqlik 65°32'08,427").*

48-nuqtadan chegara chizig‘i quruq soy bo‘ylab barcha burilishlarni hisobga olgan holda shimoliy yo‘nalishda 4586 metr masofani o‘tib, keyin dala tuproq yo‘lining g‘arb tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 439 metr masofani, so‘ngdala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 143 metr masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, avtomobil yo‘lining g‘arbiy tomonida joylashgan 49-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°25'49,954", sharqiy uzoqlik 65°32'09,722").*

49-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lining g‘arb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 123 metr masofani o‘tib, keyin dala tuproq yo‘lining shimol tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1468 metr, so‘ng janub tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1051 metr masofani o‘tib, so‘ng dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 50-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°26'23,702", sharqiy uzoqlik 65°30'39,161").*

50-nuqtadan chegara chizig‘i quruq chegara chizig‘i bo‘ylab umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 5639 metr masofani o‘tib, G‘ozg‘on shahri, Navbahor va Nurota tumanlarining chegara chiziqlari kesishgan joyda 51-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'25.246", sharqiy uzoqlik 65°27'46.313").*

F dan G gacha G‘ozg‘on shahri yerlari bilan 51-56 –nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

51-nuqtadan chegara chizig‘i quruq chegara chizig‘i orqali shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 10807 metr masofani o‘tib, tog‘ cho‘qqisida joylashgan 52-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°32'18.195", sharqiy uzoqlik 65°33'10.187").*

52 - nuqtadan chegara chizig‘I quruq chegara chiziq orqali umumiy shimoliy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 12283 metr masofani o‘tib, 53-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°38'23.142", sharqiy uzoqlik 65°34'55.298").*

53 – nuqtadan chegara chizig‘iquruq chegara chiziq orqali umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1815 metr masofani o‘tib, keyin dala tuproq yo‘lining janubiy tomoni bo`ylab umumiy shimoliy-g`arbiy yo`nalishda 1105 metr masofani o`tib dala tuproq yo`lida joylashgan 54-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°39'27.164", sharqiy uzoqlik 65°33'28.301").*

54 - nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining g‘arbiy tomoni bo‘ylab umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2104 metr masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, keyin quruq chegara chiziq bo‘ylab umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 7218 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘lining janubiy qismida joylashgan 55-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°43'45.748", sharqiy uzoqlik 65°35'40.439").*

55 - nuqtadan chegara chizig‘i quruq chiziq orqali umumiy shimoliy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 11431 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘lida G‘ozg‘on shahri, Nurota va Konimex tumanlarining chegara chiziqlari kesishgan joyda 56-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°49'41.480", sharqiy uzoqlik 65°36'25.278").*

G dan A gacha Konimex tumani yerlari bilan 56-61 –nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

56-nuqtadan chegara chizig‘i to‘g‘ri chegara chiziq bo‘ylab janubiy-sharqiy yo‘nalishda 10869 metr masofada joylashgan 57-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°47'34,500", sharqiy uzoqlik 65°43'37,531").*

57-nuqtadan chegara chizig‘i quruq chiziq bo‘ylab shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 19293 metr masofani o‘tib, ochiq joyda jo‘lashgan 58-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°57'23.990", sharqiy uzoqlik 65°47'04.058").*

58-nuqtadan chegara chizig‘i quruq chiziq bo‘ylab shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 3602 metr masofada joylashgan 59-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°58'57,858", sharqiy uzoqlik 65°48'34,856").*

59-nuqtadan chegara chizig‘i quruq chiziq bo‘ylab shimoliy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 5957 metr masofada joylashgan 60-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°02'00,118", sharqiy uzoqlik 65°49'22,349").*

60-nuqtadan chegara chizig‘i to‘g‘ri chiziq bo‘ylab sharqiy yo‘nalishda 11823 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘lining sharqiy tomonida joylashgan 61-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°02'33,349", sharqiy uzoqlik 65°57'46,262").*


61-nuqtadan chegara chizig‘i to‘g‘ri chegara chiziq bo‘ylab sharqiy yo‘nalishda 57567 metr masofani o‘tib, Jizzax viloyati, Nurota va Konimex tumanlarining chegara chiziqlari kesishgan joyda 1-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°04'37,997", sharqiy uzoqlik 66°38'44,625").*

Xalq deputatlari Nurota tumani
Kengashining
2024-yil 8-oktabrdagi
VI-77-116-5-74-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Navoiy viloyati Nurota tumanining chegara

CHIZMASI

Xalq deputatlari Nurota timani Kengashining 2024 yil "__ "_____dagi ____- sonli qaroriga 2-ilova



Shartli belgilar

Nurota tumanining chegarasi va yer maydoni

1 Nurota tumani chegarasining burilish nuqtasi va raqami